


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI

2024

QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY MARKAZI

Respublika ilmiy-amaliy
anjumani

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARINING TA'LIM
SIFATI MONITORINGI NATIJALARI: MUAMMO VA
YECHIMLAR



QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARINING TA'LIM SIFATI MONITORINGI NATIJALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI
(QASHQADARYO VILOYATI, 2024-YIL 21-IYUN)**

**“МОНИТОРИНГ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ УЧИТЕЛЕЙ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ: ПРОБЛЕМЫ И
РЕШЕНИЯ”**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ
(КАШКАДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ, 21 ИЮНЯ 2024 ГОДА))**

**RESULTS OF TEACHING QUALITY MONITORING OF HIGH
SCHOOL TEACHERS: PROBLEMS AND SOLUTIONS**

**REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE
((KASHKADARYA REGION, JUNE 21, 2024))**

PEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIK XUSUSIYATLARI

Muxammadiev O'ral Abduhaq o'g'li Psi-23/1-guruh talabasi
O'narova Shoxsanam Ilxom qizi Psi-23/1-guruh talabasi
Ilmiy maslahatchi: ChDPU Psixolgiya kafedrasi
катта ўқитувчиси Юлдашева С.М

Kasbiy faoliyatning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini o'rganishning o'zida faoliyat nazariyasining umumpsixologik masalalarini ham, shuningdek uning amaliy jihatlarini ham birlashtiruvchi yo'nalishlaridan biri mehnat sub'ektining kasbiy yaroqlilagini ishlab chiqish bo'ldi. Bu yo'nalish, birinchidan, hayot va kasb yo'llaridagi bosqichlarda shaxsning xususiyatlari va sifatlarining rivojlanishida, kasbiy xususiyatlarining namoyon bo'lish xarakteri va darajasida, kasbiy motivatsiya strukturasi va dinamikasida aks etadigan individual –psixologik farqlarni ko'rib chiqadi. Aynan mana shu psixologik xususiyatlar va sifatlarning holati kasbiy tayyorgarlikning, faoliyatga moslashuvning, o'zini professional sifatida shakllantirish, namoyon qilish va konkret faoliyatga oid masalalarni hal qilish muvaffaqiyatlilagini belgilaydi. Bu oxir oqibatda sub'ektning faoliyat talablariga muvofiqligini (yaroqlilagini) shartlaydi. Ikkinchidan, kasbiy yaroqlilik muammosining muhim jihatni sub'ekt tegishli bo'lgan konkret bir faoliyatning mohiyati bo'lib,— uning sub'ektga qo'yiladigan talablar tizimida turadigan mazmuni, vositalari va sharoitlari, kasblarning rivojlanishi bilan mazkur faoliyat komponentlarining o'zgarish xarakteri, mehnat vazifalarining ob'ektiv va sub'ektiv ahamiyati darajasi va boshqalar hisoblanadi. Uchinchidan, kasbiy yaroqlilik tayyorgarlik va real faoliyatning oraliq yoki yakuniy natijalarida (muvaqqiyatlilik, unumdarlik, ishonchlilik va boshqalar) namoyon bo'ladi va bu natijalar ularning etalon, normativ ko'rsatkichlari bilan to'qnash kelganda sub'ekt uchun baholash ma'nosini kasb etadi. Ularning muhimligi, bir tomonidan, teskari aloqa mexanizmini qo'shish asosida faoliyatni boshqarishdagi baholarning roli (ob'ektiv va sub'ekt) bilan, ikkinchi tomonidan esa, - mana shu baholarning konkret sub'ektning turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, kasbiy hamda hayoti va faoliyatiga oid boshqa masalalariga, uning tayyorgarligi, istiqbolliligi va professionalligi haqidagi mulohazalarga ko'rsatadigan ta'siri bilan belgilanadi.

Tadqiqot davomida pedagogik yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorlash jarayonida yetakchi faoliyat yo'nalishlarining nimaga qaratilganligi va ularni talabalarning kurs bosqichlariga binoan o'zgarishlar o'ziga xosliklarini aniqlashga erishildi. Pedagogik yo'nalishi talabalarini kasbiy tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini qanday tashkil etilganligiga ham bog'liq degan, dastlabki pragnostik farazni isbotlashga harakat qilaylik. Aslida mutaxassislar

tayyorlash jarayonining umumiyligi maqsadi Davlat ta’lim standartlarida belgilangan kasbiy qoidalar va bilimlarni o‘zlashtirish uchun qo‘yilgan talablarga bog‘liq. Ammo, bu esa yo‘naltiruvchi va aniq maqsadlarga, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonida belgilab olinadigan kognitiv va affektiv (xulq-atvor) maqsadlarga asoslanadi. Mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik holatini psixologik tahlil qilishda ham ushbu jihatlar murakkablik tug‘diradi. Biz tadqiqotda foydalangan metodikalar natijalarining tahliliga ko‘ra, pedagogik yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorlashdagi mahalliy shart-sharoitlarning ta’siri ko‘proq qaysi jihatlarini o‘rganish zarurligini taqozo etadi? Shu bois, mazkur tadqiqot natijalariga murojaat etib ko‘raylik Shunday qilib, kasbiy yaroqlilikga ham faoliyatning individdan talab qilinadigan va u tomonidan amalga oshiriladigan mahsuldorligi, muvaffaqiyatliliqi darajasini xarakterlovchi tizimli sifati deb, ham uning sub’ektining faoliyatning berilgan normativlariga erishish va ularni amalga oshirishning tizimli sifati deb qarash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, kasbiy yaroqlilikning shakllanishi va namoyon bo‘lishi jarayonining psixik determinatsiyasi qonuniyatlarini o‘rganish tadqiqot natijalariga hamda faoliyatning o‘zini va uning sub’ektini, ularning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirini tadqiq qilishga, bu bog‘liqlikning namoyon bo‘lishi shakllariga, rivojlanish xarakteriga, ularning o‘zaro bir-biriga moslashuvining diagnostikasi va bashoratiga asoslanishi kerak.

Talabalar pedagogik kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagog-murabbiyda shakllanishi lozim bo‘lgan prediktorlarni qay darajada o‘zida kamol toptirishga erishayotganligini prognozlashda muloqotmandlik, tashkilotchilik, predmetlarga yo‘nalganlik, intelligentlik, qo‘llab-quvvatlash kabi prediktorlar ustvor ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авлаев, О. У. (2021). ТАЛАБАЛАР КАСБИЙ КАМОЛОТИДА УСТАНОВКАЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 2(10), 1247-1258.
2. Авлаев, О. У. (2021). Талабалар камолотида ижтимоий интеллектнинг гендер фарклари.«. PSIXOLOGIYA" ILMIY JURNAL, 3441.
3. Клинов Е.А. Психолого-педагогические проблемы профессиональной консультации. М.: Знание, 1983.
4. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. М.: Наука, 1984.
- 5.Ломов Б.Ф. Системный подход и система детерминизма в психологии // Психологический журнал. 1989. № 4. С. 19–33.
- 6.Шадриков В.Д. Проблемы системогенеза профессиональной деятельности. М.: Наука, 1982.

N.SH. RUZMATOVA S. JALILOVA	MOTIVATSIYA MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILLARI	295
O.B.OZODQULOV S. KOMILJONOVA Z. AVLOQULOVA	O'QUV JARRAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA BUYUK ALLOMALARIMIZNING G'OYA VA FIKRLARINING TUTGAN O'RNI	299
O.B.OZODQULOV R. SHODIYEVA M. YULDASHOVA	BUGUNGI KUNDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O'RNI VA UNI YUKSALTIRISH OMILLARI	304
O.B.OZODQULOV G. BAHRIDDINOVA N. MIRZAUSMONOVA	PROEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH JARAYONIDA SHAXSNING PSIXODIAGNOSTIKASI	308
X.K.RAHIMOVA K. MAL'ZEVA	BNEDRHENIE CIFFROVYX TEKHNOLOGIJ V OBRAZOVATEL'NYY PROTSESS	313
X.K.RAHIMOVA E. LUKYANOVA K. CHIPURIN B. YOUNUSOVA	VOZMOZHNOSTI POVYSHENIA KACHESTVA OBRAZOVANIJA NA OSNOVE TEKHNOLOGII MEDIAOBRAZOVANIJA	316
SH.R.SAMAROVA A. ABDURAXMONOV F. AXMADOVA A. XOLMURODOVA	DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING O'ZIGA XOSLIGI	320
S.N.AMANGELDIYEV Z. JABORBERGANova	MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHNING INNOVATSION MUHITDAGI METODIKASI	323
B.N.TURAKULOV SH. KABULOVA S. MAMARAJABOVA Z. SAMINJANOVA	INSON QALBI EMOTSIANAL INTELLEKTNING YORQIN KUZGUSI	328
N.B.XUSANOVA Z. JABORBERGANova D. MUSINOVA SH. OLLOBERGANova	KICHIK MAKTAB YOSHIDA O'QUVCHILARNI MEHNATSEVARLIKKA O'RGATISH, MILLIY RUHDA SHAKLLANTIRISH	333
N.B.XUSANOVA S. TURG'UNOVA F. SHONAZAROVA	BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	336
G.MIRZARAHAMOVA M. RAXIMOVA L. BAENOVA	PONNAVATEL'NAYA DEYATEL'NOST DETEY S DEFEKTAMI RECHI	338
G.MIRZARAHAMOVA M. PARDAEVA M. RAXIMOVA	HUTQ FAOLIYATI BA ULARNING XUSUSIYATLARI	341
C.M. YULDASHOVA O'. MUXAMMADIEV SH. O'NAROVA	PEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIK XUSUSIYATLARI	347
C.M. YULDASHOVA T. SADULLAYEVA M. PARDABOYEVA	TASNIFFLASH USULLARI BA TALABALARNING O'QUV NATIJALARINI BASHORAT QILISH	349
C.M. YULDASHOVA J. TO'XTAYEVA A. SULEYMANOVA	KASBIY SHAKLLANISH VA KASBIY FAOLIYATNI TADQIQ ETISH PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	352
D.R.ODILOVA	MTT XODIMLARI KOMPETENTLIGINI O'RGANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	355
M.J.ERNAZAROVA M. M.J.ERNAZAROVA M. IKROMOVA	TALABALARDA TA'LIM-TARBIYANI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	361
M.J.ERNAZAROVA O.B. XURSANOVA	BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	364